



**Tadqiqot** uz

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEBRAL  
№25**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
14-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ- 14**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART- 14**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН**

<b>1. Юсупова Шохиста Алимжановна</b> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБЛАРИ.....	7
<b>2. Quziboyeva Rayxon Abdumuminovna</b> AN'ANAVIY BADIY HUNARMANDCHILIK TURLARI .....	9
<b>3. Ro'ziyeva Feruza Tolibovna</b> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI.....	11



## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

### ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБЛАРИ

Юсупова Шохиста Алимжановна

Тасвирий санъат ўқитувчиси

Гулистон давлат университети, Гулистон шаҳри

E-mail: yusupovashoxista32@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада ҳозирги даврнинг тасвирий санъат ўқитувчининг шахсий фазилатлари ва замонавий педагогик технологияларни амалиётда қўлланилиши тўғрисида фикр юритилган. Тасвирий санъат ўқитувчисига қўйиладиган асосий талаблари белгилаб ўтилган. Фаолият давомида қўллаши лозим бўлган омиллар келтирилган.

**Калит сўзлар:** тасвирий санъат, технология, тарбия, таълим, ўқитувчи, меҳнат, замонавий педагог, дарс, усул, маҳорат, етук, қобилият, техника, билим.

Республикамиз мустақилликка эришганидан сўнг ҳамма соҳаларда чуқур ўзгаришлар амалга оширилди. Шу жумладан, таълим тизимида ҳам. Бу ўзгаришлар бутун таълим мазмунини қайта ташкил этишни, таълим муассасалари фаолиятини, мақсад ва вазифаларини ҳамда уларни бошқарини ўзгартиришни таълаб этади. Бугунги кунда асосий талабларидан бири илғор педагогик технологияларни ўзгартириш ва таълим жараёнига тадбиқ этиш, ўқитишнинг замонавий усулларини қўллаш орқали таълим сифатининг самарадорлигига эришишдир. Ушбу берилётган талабларга асосан ўқитувчи маънавий ва касбий сифатларига эга бўлмоғи керак. Шулар қатори тасвирий санъат ўқитувчисининг олдида ўқув тарбия жараёнини ташкил этиш ва ҳозирги замон талабларини жорий этиш долзарб муаммоларидан бири эканлиги яққол кўзга ташланмоқда. Олий таълим педагогикаси фанининг таъкидлашича тасвирий санъат ўқитувчиси касби биологик, географик, ботаник ва анатомик-физиологик хусусиятлари билан ҳам чамбарчарс боғланган бўлмоғи лозим. Тасвирий санъат ўқитувчи жуда ҳам синчиков яъни майда элементларни эътибордан қолдирмайдиган хусусиятга эга бўлади. Умуман олганда педагогик касбда тасвирий санъат ўқитувчидан қўйидаги хусусиятлар талаб этилади. Биринчи навбатда ташқи кўринишга аҳамият бермоғи лозим. Тўрт мучали бут, кўриш, эшитиш ва албатта ҳис этиш, нутқ органлари соғлом бўлиши. Рассомлик маҳорати билан бирга ушбу қобилиятни ўқувчиларга тўғри етказиш учун педагогик маҳоратга эга бўлиши ва ўзига хос миллий, замонавий маданият ва маънавият соҳиби бўлмоғи лозим. Албатта, бундай талабни қатъий равишда ҳар қандай тасвирий санъат ўқитувчисига бериб бўлмайди. Чунки, айрим кишилар жисмоний нуқсонларга эга бўсада, тасвирий санъат ўқитувчиси фаолиятида катта натижаларга эришаётганини учратиш мумкин. Инсонни маълум бир камчилиги ўрнини бошқа юксак ривожланган фазилати билан тўлдириши мумкин. Бу албатта табиат қонунидир. Баркамол авлодни ёшлигиданоқ касбга тўғри йўналтириш муҳим аҳамият касб этади.

Таълим жараёни жумладан, тасвирий санъат ўқитувчиси ҳам ўқитишнинг илғор, замонавий шакл ва усулларга муҳтож. Бугунги кунда тасвирий санъат учун етук малакали мураббийлар кераклиги яққол сезилиб турибди. Ушбу масалани ҳал этишда давлатимизнинг эътибори ҳам катта бўлмоқда. Айни кунда республикамиз таълим фидойилари дарс беришнинг ўқувчиларни мустақил фикрлашга ундовчи усул ва услубларни жорий қилинмоқда. Кўплаб педагоглар жумладан тасвирий санъат ўқитувчилари ўқитишнинг замонавий усулларининг туб моҳиятини, уни қўллашдан мақсад нима эканлиги, замонавий усулларнинг анъанавий усуллардан афзалликларини чуқур тушуниб етишмаган, уни амалиётга тадбиқ этиш ҳақида тасаввурга ҳам эга эмаслар.

Хулоса қилиб айтганда, миллий дастурда кўзда тутилгандек “Хар томонлама етук, маъ-



навиятли, юксак маданиятли, мустақил фикр юритувчи комил инсон”ни тарбиялашда тасвирий санъат ўқитувчисининг фолияти кўмак беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Т., 1997й.
2. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.Т.:Шарқ,1997й.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педпгогика маҳорат.Т,2003й.
4. Рахим Ҳасанов Тасвирий санъат ўқитиш методикаси Т.:Шарқ, 2006й.



## AN'ANAVIY BADIY HUNARMANDCHILIK TURLARI

**Quziboyeva Rayxon Abdumuminovna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
1-bosqich magistranti  
Telefon: + 998 91 334-95-74

**Anotatsiya:** ushbu maqolada an'anaviy badiiy hunarmandchilik turlari haqida ma'lumotlar berilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng boshqa sohalar qatori hunarmandchilik turlariga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, hunarmandlarga yaratilgan imkoniyatlar haqida ham fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ganchkorlik, zargarlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik, zardo'zlik.

Xalq hunarmandchiligi juda qadim zamonda paydo bo'lib, hunarmandchilikning eng rivojlangan va barhayot turi bo'lib kelgan. Yaqin o'tmishda xalq hunarmandchiligining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo'yachilik kabi turlarni o'ziga xos bajarish texnologiyalari haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, nom qozongan ustalar yo'qolib ketishi xavfi ostida qolgan edi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng boshqa sohalar qatori xalq hunarmandchiligiga ham alohida e'tibor qaratildi va sohani rivojlantirishga doir keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri. O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyliги, kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan.

Naqqoshlik san'ati ham qadimdan dunyoga mashhur hisoblanadi. XI-XII asrlarda O'zbekiston hududidagi arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan. Har bir viloyatning o'z maktabi bo'lgan. O'rta Osiyo territoriyasida arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum.

Yog'och o'ymakorligi ham juda keng tarqalgan bo'lib, bunda buyumlarga chizib, kesib, o'yib ishlanadi. Yog'och o'ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravoq, har xil xontaxtalar bezatilgan. Yog'och o'ymakorligida asboblar ikki turga bo'linadi: "o'yma qalamlar" va "naqsh qalamlar". Asboblar shakli va bajaradigan ishiga qarab uskunalarining bir qancha xillariga bo'linadi: chizg'ich, sirkul, uchburchaklar, transformator.

VI-XII asrlarda pichoq yasash san'ati ham rivojlanib, uni bezash texnologiyalari o'zgargan. Respublikamizda yigirmaga yaqin pichoqchilik markazlari bor. Pichog' tig', dasta va qindan iborat bo'ladi. Pichoqchilikda o'choq, dam, sandan, egov, bolg'alar ishlatiladi.

Naqsh arabcha "tasviri gul" degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik va geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlik, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik va boshqalarda har xil yo'llar bilan ishlanadi. Masalan, o'yib chizib, chok yordamida, zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga, geografik o'rniga, o'lkaning umumlik dunyosiga ko'ra rivoj topadi. Masalan, Arman va Gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqining naqshlariga qarasaq anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'ramiz.

Kashtachilik kashta tikish kabi amaliy san'atning qadimiy sohalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadimiylikini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularni ta'siri bilan rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtachilikning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarni yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Respublikamizda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida hunarmandchilik faoliyati kundan kunga rivojlanib,



ularning mahsulotlari eksportga chiqarilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash uchun ko'pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishli haq to'lagan holda jalb etishga haqlidir. Mamlakatimizda milliy hunarmandlarga soliq imtiyozi dastlab O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1997-yil 31-martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-1741-sonli farmoniga asosan tadbir etilgan bo'lib, keyinchalik ushbu imtiyozning amal qilish muddati tegishli farmonlariga asosan uzaytirib kelindi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni ma'naviy barkamol bo'lib yetishishida, ularda milliy ruh va iftixor hissini uyg'otishda xalq hunarmandchiligining roli beqiyosdir. Mamlakatimiz moddiy madaniyati tarixida muhim mavqeni egallagan xalq hunarmandchiligi shunday xazinaki, unda xalq hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar aks etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abulqosimov H., Abdullayeva R. Hunarmandchilik rivoji va tadbirkorlik. – Toshkent. 2000.
2. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent. 1991.
3. Zohidova D.A. Hunarmandchilikka kirish. – Toshkent. 2001.



## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI

**Ro'ziyeva Feruza Tolibovna**

Qiziltepa tumani 15 umumta'lim maktabi  
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada tasviriy san'at o'qituvchisining ko'rgazmalilikka e'tibor qaratishi metodik tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** surat, lavha, illyustrativ, grafik /chizma/ materiallar, o'quv filmlari

Hozirgi davrda turli mediavositalar har bir maktabda mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali qurollar doirasi yanada kengaydi. Ayniqsa, hozirgi kunda deyarli har bir maktab bor bo'lgan kompyuter, internet imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Qolaversa, mobil telefonlarning surat, lavha va ovoz yozish imkoniyatlari yuqoriki, undan istaganicha ko'rgazmalilik uchun oqilona foydalanish mumkin. Ko'rgazmalilik bilimlarning onglili va faol egallanishga yordam beradi. Ongda qayta ishlangan, qo'llashda ongli va to'g'ri ifoda qilingan tarqatmalar mustahkam egallanadi.

O'quv mavzularini o'zlashtirishning mustaxkamligi ko'pgina omillarga:

O'qitishning ilmiyligi va sistemaliliga, tushunishining ongliligiga, o'quvchilarning bilish faolligiga, o'qish sabablariga, o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishga barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyuushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok qilsa, bilish shuncha osonlashadi. Ko'rgazmalilik amaliy fanlar ta'limini o'qitishning muhim qonuniyati sanaladi. Chunki bu fanda ko'rgazmalilikni ko'proq talab etadi. Ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Hozirda ko'rgazmalilikning turlari xilma-xil: illyustrativ hamda grafik /chizma/ materiallar, o'quv filmlari, televizion darslar v.b. Ularning har biri ko'rish, eshitish, shakldagi ko'rgazmalilikka tegishli bo'lishi mumkin. Ko'rgazmali metodlar deganda ta'lim jarayonida qo'laniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni amaliy o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Og'zaki tushuntirish kuzatishni tashkil etishda, tasavvurlarni bir maromga solishda, ularni o'rganilayotgan murakkab darsjasi yuqori bo'lgan mavzular g'oyasi bilan bog'lashda yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar bo'lmasa, og'zaki izohning uncha foydasi bo'lmaydi. Ko'rgazmali vosita sifatida plakatlar, slaydlar tasviriy san'at darslarida namoyish qilib ko'rsatilishi mumkin. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida turli xil texnika vositalaridan foydalanib namoyish qilish keng tarqalmoqda. Bu jarayonda ko'rgazmali qurollar turlicha ahamiyatga ega bo'ladi. Ular bir holda faqat namoyish qilinadi. Ikkinchi holda esa abstraktsiyani shakllantirish jarayonini engillashtiradi. Ko'rgazmali qurollar yordamida vujudga keltiriladigan aniq hissiy obrazlarga tayanish abstrakt qoidalarni o'zlashtirish jarayonini engillashtiradi, bilimlarning tushunarlik darajasini oshiradi. Ko'rgazmali qurollar, ayniqsa, obrazlarni tasvir etishda olgan bilimlarini sistemaga solishda va boyitishda, shuningdek, o'quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali quroldan o'qituvchining biror og'zaki bayonini yoki izohsiz foydalanishini tasavvur qilish qiyin. Ko'rgazmali vosita hamisha o'qituvchining so'zi bilan o'zaro aloqada va muayyan munosabatda bo'ladi. O'quv jarayonida ko'rgazmalilik tamoyilini qo'llashning muhimligini dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuni hissiy idrok etishga, ularni «jonli mushohada» qilishga katta o'rin beruvchi nazariya nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin. Ko'rgazmalilik tamoyili qo'yidagi sharoitlarda amalga oshiriladi: - ko'rgazmalilik darsning maqsadi va vazifasiga muvofiq keladi; - ko'rgazmalilik og'zaki tushuntirish bilan birga qo'shib olib boriladi;

- darsda ko'rgazmalilik haddan tashqari ko'p qo'llanilmaydi;
- o'qituvchi namoyish qilish o'rni, vaqti va davomiyligini to'g'ri aniqlaydi;
- ko'rgazmalilikni amalga oshirishda o'quvchilarning xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga asoslanadi. O'qituvchi so'z yordamida o'quvchilarning ko'rgazmali ob'ektlarni kuzatishlari hamda ulardagi mavjud bilimlar asosida asarlarning idrok qilish jarayonida «ko'rish» mumkin bo'lmagan aloqalarini anglash va ifodalashga olib keladi. O'quvchilar asosiy ma'lumotlarni



o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishidan oladilar, ko‘rgazmali vositalar esa ularni yo tasdiqlaydi, yo aniqlashtiradi.

Yuqori sinflarda xususan, 9-sinfda ko‘rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingafon , magnitafon, diktafon, radio va televideniya ko‘rsatuvlari, o‘quv – o‘rgatuv texnikasining so‘ngi yutug‘laridan unumli va samarali foydalanish o‘quvchining ijodiy barkamolligini tanlash, ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi. Zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatik jadvallar, kompyuterda ishlashga yo‘naltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(14-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000